


Fidoyilar taqdirlandi

O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori Jannat Ismailova, Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori Xurshid Fayziyev hamda FA huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi direktori vazifasini bajaruvchi Kozimxon Sagdullayevlar Toshkentda yangi bunyod etilgan G'alaba bog'ini tashkil etish ishlaridagi faolligi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining "Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.





Taqdirlanganlarni O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamoasi nomidan chin yurakdan tabriklaymiz va kelgusidagi faoliyatlarida zafarlar tilaymiz!